

UDK 631.2

O'ZBEKİSTONDA MULKNI HIMoya QILISH HAMDA XUSUSIY MULKCHILIK  
SHAKLLARINI YANADA TAKOMILLASHTISH

Egamova Dilchehra Adizovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti

Ahadova Nilufar Komiljon qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Ubaydov Umid Majiddinovich

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

**Kirish.** Inson uchun yerning qadri shunchalar yuksak va bebafo bo'lganki uning har bir qarichini o'z jonini fido qilib bo'lsada himoya qilgan. Inson shu qora tuproqqa vatan deya qaragan, bu esa o'z navbatida inson va zaminni bir biriga abadiyatga bog'lab qo'ygan ya'nikim yer inson bilan va o'z navbatida inson ham yer bilan bir biriga uzviy bog'liq. Bugungi kunda tinch va osoyishta zamonda yerni qanday va kimdan himoya qilish kerak. Ming yillar davomida ota-bobolarimiz jangu jadallar kechib g'animga bir qarich yerini bermay kelishdi. Vatan tuprog'ini asrab avaylashdi. Bugun zamon shiddat bilan rivojlanayotgan ayni bir damda biz yerni kimdan himoya qilishimiz kerak. Yerga bo'lgan qonunchilikni qanday yaratamiz va qanday shakllantiramiz. Bugun bir savol o'rtaga tashlanadi. Bugun tinch va osoyishta zamonda yerni kimdan himoya qilishimiz talab etiladi. Ming afsuski buning javobini ham anglab yetganmiz. "Biz o'z yerimnizni o'z o'zimizdan himoya qilishimiz kerak".

**Muammoning qo'yilishi:** Shu kecha kunduzda televiedeniya, gazeta jurnal, radio va bir qator ommaviy axborot vositalarida "SNOS" degan masala kunning, haftanining oyning hattoki yilning eng muhim masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mamlakatning hali bu qismida, hali u qismida "snos" masalasi bo'yicha bir qancha e'tirozlar va noroziliklar soni ko'paysaki ko'paymoqda ammo kamayotgani yo'q. Xo'sh bu masalaning asil mohiyati yoki yuzaga kelish sababi nimada. Nima uchun oddiy xalq kadastr va arxitektura va qurilish tashkilotlaridan bunchalik alamzada. Tuman hokimlari esa bundan chigal vaziyatda nima qilishlarini bilmay qolmoqdalar bunday og'ir muammolarning yechimi qayerda. Nega endi bu tuman hokimidan o'tib viloyat hokimidan o'tib hatto bosh vazir shug'ullanadigan masala chiqib ulgurdi. Bu kabi og'ir mummolarning vujudga kelishiga bitta sabab bor va bu sabab oddiy bir sabab emaski xalqimiz ikki tushunchani bir biri bilan chalkashtirib yubormoqda. Birinchisi davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalaring olib qo'yilishi va ikkinchisi o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini o'z egasiga yani davlatga qaytarish va u yerda qurilgan bino va inshootlarni buzish masalasi. Ming afsuski bu

ikki masalani oddiy xalq u yoqda tursin ba'zi bir rahbarlar ham farqlay olmay qoldilar. Shu sohada o'qib , shu sohada ishlab, shu sohada rahbarlik lavozimlarida ishlab turgan qo'shtirnoq ichida turgan mutasaddilar ham ikki tushunchani asil negizini tushunmagan holda oddiy xalqni azobga qo'ymoqdalar. Mamlakatimiz qonunchiligidagi aynan shu masala bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmaganmidi yoki ishlab chiqilsa ham ijro intizomi ta'minlamagandimi. Ularni tahlil qilib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qator 2006-yil 29 maydagi "Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolarga yurudik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 97-sun qarori, 2011-yil 25-maydagi " Shaxarsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'limgan boshqa ehtiyojlar uchun yer uchastkalarini berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" gi 146-sun qarori 2018yil 26-dekabrdagi "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi tog'risida nizomni tasdiqlash haqida" gi 1047-sun qarorlari aynan shu snos masalasi bo'yicha bir qator muammolarni hal etishda muhim normativ huquqiy hujjat bo'lib xizmat qildi.

**Tadqiqot uslubi:** Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar yer qonunchiligidagi ayniqsa "snos" masalasida barcha muammo hal qila olmaganligi bois yangi normativ-huquqiy hujjatga ehtiyoj sezildi.Qabul qilinishi kerak bo'lgan yangi hujjat shunisi bilan kerak ediki aynan shu hujjat xala va hokimiyat ortasida majoziy manodagi devorni buzib tashlashi kerak edi. Xalq snoslardan charchagan va bu masala to'laqonli hal bo'lishi kerak edi. Hammaning joniga oro kiradigan va "snos" masalasini o'z joyiga qo'yib beradigan yangi normativ-huquqiy hujjat hukumat tomonidan qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 16-noyabrda "Jismoniy va yurudik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 911-sun qarori qabul qilindi va bu qaror "snos" masalasida yangi islohotlar davrini boshlab berdi. Xo'sh bu qaror aynan snos masalasida qanday yangi tartibni jamiyatimizga olib kirdi. Ushbu qarorga asosan 2020 yil 1- yanvardan boshlab quyidagi tartib joriy etildi.

**Agarda yer uchastkasini olib qo'yichga zarurat tug'ilganda:**

- ❖ hokimlik yoki investor va mulkdorlar o'rtasida ommaviy axborot vositalari ishtirokida ochiq muhokama o'tkaziladi.
- ❖ dastlabgi hisob-kitoblar amalga oshiriladi, kompensatsiya berish uchun yetarli resurslar mavjudligi o'rGANILADI.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori kengesi, xalq deputatlari kengashlari tomonidan:**

- ❖ yer uchastkasini olib qo'yilishidagi foyda va xarajatlar o'rganilib chiqiladi.

❖ resurslar yetarli bo'lganida hamda foyda va xarajatlardan ustun kelganda yer uchastkasini olib qo'yish tog'risidagi qaror qabul qilinadi. Bunday vaziyatda hokimlar qabul qilish vakolatiga ega emaslar.

❖ olib qo'yilishi rejalashtirilayotgan yer uchastkasidagi ko'chmas mulklar baholovchi tashkilot tomonidan baholanadi.

❖ hokimlik yoki investor va mulkdorlar o'rtasida kompensatsiya turi, miqdori va berish muddati kelishiladi va ushbu kelishuv notarial tartibda tasdiqlanadi.

❖ kelishilgan kompensatsiya berilmaguncha ko'chmas mulklar buzib tashlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **Mulkdorlarga kelishilgan kompensatsiya berilgandan so'ng:**

❖ mulkdor tomonidan ko'chmas mulk bo'shatib beriladi.

❖ hokimlar tomonidan ko'chmas mulkni buzib tashlash to'g'risidagi qaror loyihasi adliya organlariga xulosa olish uchun yuboriladi.

❖ adliya organlari kompensatsiya berilganligi, uy joylar amalda to'liq bo'shatilganligi va boshqa holatlarni o'rganadi va o'z xulosasini hokimliklarga taqdim etadi.

❖ adliya organlarining xulosasi ijobiy bo'lgan taqdirdagina ko'chmas mulkni buzib tashlash

❖ oshiriladi. Shu o'rinda bir jihatni alohida e'tiborga olish kerakki agar yer to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Yer uchastkalari olib qo'yilishi bilan bog'liq qonun talablari ijrosining nazorati prokuratura organlari tomonidan amalga uchastkasi xususiy mulk bo'lsa, ushbu tartib ularga nisbatan tatabiq etilmaydi. Shu paytga qadar xalqni qiy nab kelayotgan "snos" masalasi yuqoridagi tartib orqali o'z yechimini topdi. Endi masalaning ikkinchi jihatiga e'tibor qaratsak. Bino va inshoot buzilishi bilan bog'liq ikkinchi jihat ham bor. Bu esa "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarida qurilgan bino va inshootlarni buzish jarayonidir". Xalq orasida ham ushbu masala bo'yicha bir qancha muammo va e'tirozlar kelib chiqmoqda. Jamiyatimizda ushbu masala qanday amalga oshirilmoqda. Biz birinchi navbatda o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nimalar kirishini anglab olishimiz darkor. Quyidagilar o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar deya e'tirof etiladi:

❖ vakolatli organning yer ajratish haqidagi qarorisiz yoki qonuniy ajratilgan yer uchastkasi chegarasidan chiqqan holda qurilgan imoratlar.

❖ qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida qurilgan imoratlar masalan sug'oriladigan yerdarda qurilgan imoratlar.

O'zboshimchalik bilan qurilgan uy joylarni buzish tartibi haqida qanchalik ko'p bilamiz. Bugun ba'zilar uyim asossiz buzilyapti deb gapi rayotganlarning uy joylari haqiqatdan ham noqonuniy qurilgandir. Agar qonun hamma uchun teng ekanligini inobatga oladigan bo'lsak noqonuniy qurilgan uy joylar buzilishi kerak. O'zboshimchalik bilan qurilgan uy-joylar buzilganda davlat tomonidan hech qanday kompensatsiya puli ajratilmaydi. O'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs imoratni

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)**

o'n besh kun ichida buzish kerakligi haqida ogohlantiriladi. Agar o'zboshimchalik bilan imoratni qurgan shaxs o'n besh kun ichida uni buzmasa:

- ❖ imorat sud qarori asosida buziladi.
- ❖ sud qarori ijrosini MIB ta'inlaydi
- ❖ imoratni buzish, yetkazilgan zararni qoplash va yerni yaroqli holatga keltirish xarajatlari o'sha shaxsdan undiriladi.

**Xulosa:** O'zbekiston yer resurslari nihoyatda cheklangan, aholisi esa shiddat bilan oshib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Aholi soni o'sishi shiddati sug'oriladigan er maydonlari oshishidan ancha yuqori. Har bir gektar sug'oriladigan erga 8 kishi to'g'ri keladi.

Umumiy qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni 17,8 mln gektar bo'lib, Osiyo taraqqiyot bankining prognozlariga ko'ra yaqin 30 yilda sug'oriladigan erlar miqdori yana 20-25 foizga kamayadi.

Qonun hujjatlarida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerda qurilish ishlarini amalgalash oshirganlik uchunbir qancha javobgarlik belgilab o'tilgan. Bugun odamlar orasida uyim "snos" ga tushdi, uyim buzilyapti kompensatsiya puli berilmayapti deb e'tirozga sabab bo'layotgan aslida esa o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarda qurilgan imoratlarga nisbatan qatiy choralar va iqtisodiy mexanizmlar jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmoq'i kerak.

O'tkazilgan xatlov natijasiga ko'ra, 2018-2019 yillarda 23 mingdan ortiq holatlarda fuqarolar 3900 gektar yerni o'zboshimchalik bilan egallab olishgan, 6000 gektar ekin yerlarida noqonuniy imoratlar qurib olingan. Bu 23 mingta qonun buzilishi degani.

Endi 23 mingta oila boshpanasiz qoladimi? Buzilayotgan uy joylarga nisbatan qonuniy choralarini qo'llash ammo xalqni ham ko'chaga haydab solishga yo'l qo'ymaslik uchun ham uzoqni ko'zlab ish ko'rish kerak buning uchun esa o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarga nisbatan yangi mexanizmlarni ishlab chiqish, yer berish, yer ajratish jarayonini yanada soddalashtirish shaffoflikni ta'minlash kerak.

Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida 2018 yil davomida hokimliklar tomonidan 335 gektar yer maydonlari noqonuniy ajratib berilgani va natijada mahalliy byudjetlarga 20 mld 400 mln so'mdan ko'proq zarar etkazilgani aniqlangan.

Tuman hokimlari tomonidan yer ajratish jarayoniga yangicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yer uchastkalarini berishda korrupsiyani tak-tugi bilan yo'qotish esa eng muhim masala bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa yerni davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishida tuman hokimlarining vakolatlarining qisqarishi yer qonunchiliga muhim qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz bugun davlat taraqqiyoti yo'lida har bir soha qatori yer resurslarini boshqarish tizimini ham yuqori cho'qqilarga olib chiqishimiz kerak.

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)

Yer ajratish, yer berish va yerni davlat va jamiyat va ehtiyojlari uchun olib qo'yishda shaffof mexanizmlarni ishlab chiqish kerak. Yer resurslaridan foydalanish tizimida xalqning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha yangi ishlarni amalgalash, odamlarga davlat va jamiyat va ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi va yerni o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarda noqonuniy qurilgan uy joylarni buzish o'rtasidagi farqni tushuntirish ishlarini muntazam olib borish kerak.

Bu ikki bir birga o'xshash masalalarning asil mohiyatini anglagan holda ish ko'rish bugungi kunning eng dolzarb masalaslaridan biri hisoblandi. Xalq qachon davlatdan rozi bo'ladi? Qachonki har kim o'z ishini sidq-u dildan, vijdonan bajarib yurt kelajagi uchun bir tan-u, bir jon bo'lib kurashsagina.Yerning har bir qarichi ona kabi muqaddas. Buni hech bir inson unutmasligi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tog'risida" 2019-yil 3-avgust F-5491 .

2. Vazirlar Mahkamasini qarori "Jismoniy va yurudik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 16-noyabr 911-sont.

3. Vazirlar Mahkamasi qarori "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yurudik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi tog'risida nizomni tasdiqlash haqida" 2018yil 26-dekabr, 1047-sont.

4. Vazirlar Mahkamasi qarori " Shaxarsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'limgan boshqa ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" 2011-yil 25-may, 146-sont.

5. Vazirlar Mahkamasi qarori "Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolarga yurudik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" 2006-yil 29 may, 97-sont.

6. Xurramovich, N. O. (2021). Modern Improved Geodesical, Geoformatical and Cartographic Methods in Creation of the Atlas of Cultural Heritage Monuments in Bukhara Region. *Барқарорлик ва Етакчи Таъдиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(1), 43-47.

Xurramovich, N. O. (2021). Reconstruction of Damaged Land in Farmers and Agricultural Farms. *Барқарорлик ва Етакчи Таъдиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(1), 48-53.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)**

7. Imomov, S., Nuriddinov, K., & Nuriddinov, O. (2021). Thermal regime for convective drying products. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264, p. 04055). EDP Sciences.
8. Нуридинов, Х., Кучкоров, Ж. Ж., & Нуридинов, О. Х. (2019). Тепловой баланс комбинированной гелиосушки. *Школа Науки*, (4), 3-4.
9. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).
10. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94
10. Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014. – C. 49.
11. Жураев Т. Х., Эгамова Д. А. ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ДЛЯ СИМУЛЯЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБОРАЧИВАНИЯ ПЛАСТА //СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ, ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 106-109.
12. Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). Euro-Asia Conferences, 5(1), 285–286.
13. Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (6-2), 23-26.
14. Tuxtayeva, X. T., Egamova, D. A., & Hamroyeva, B. Z. (2022). The Potential of Ecotourism in the Economic and Social Development of Bukhara Region. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 155-158.
15. Adizovna, E. D., & Farrukhovna, Q. L. (2022). LAND RESOURCES MANAGEMENT ISSUES. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(05), 138-141.
16. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310.
17. Adizovna, E. D., & Shokirovich, H. S. (2022). Features of Land Monitoring in Agriculture. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 193-196.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)**

---

- 18 Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
- 19 Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 911-915.
- 20 Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 1-4.